

VIII–XX ASRLAR QUR'ONSHUNOSLIGI

Isomiddinov Toshtemir Sayfiddinovich*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi bitiruvchisi**E-mail: isomiddinovt@mail.ru*

Annotatsiya. Qur'on tafsirining klassik davri VIII asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrda muayyan Qur'on matnlarini sharhlovchi dastlabki hadis to'plamlari, keyinchalik esa umumiy hadis kulliyotlarida maxsus boblar paydo bo'ldi. Dastlab oyatlarning ma'nolari va ularning nozil bo'lish sabablari (*asbobun-nuzul*) haqidagi hadislar umumiy hadis to'plamlariga kiritilgan bo'lsa, keyinchalik ayrim mualliflar ularni alohida fasllarga ajratdilar. Ushbu mavzuga oid rivoyatlarni to'plash bilan Shu'ba ibn al-Hajjoj (vof. 776), Molik ibn Anas (vof. 795), Vaqi' ibn al-Jarroh (vof. 812), Sufyon ibn Uyayna (vof. 814), Ravh ibn Uboda al-Qaysiy (vof. 820), Yazid ibn Horun as-Sulamiy (vof. 821) va Abd ur-Razzoq as-San'oni (vof. 827) kabi taniqli ulamolar shug'ullanganlar. Ularning tafsirga bag'ishlangan to'plamlari bizning davrimizgacha yetib kelmagan, biroq ushbu hadislarning aksariyati boshqa manbalar tarkibidan joy olgan. Payg'ambar (s.a.v.) hayoti bilan bog'liq oyatlarning sharhi esa u zotning siyratlarida (biografik janr) bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Qur'on, hadis, fiqh, oyat, as-Sulamiy, tafsir, payg'ambar, siyrat, al-Qaysiy.

Abstract. The classical period of Quranic exegesis (*tafsir*) traces back to the second half of the 8th century. During this era, the earliest collections of prophetic traditions (*hadiths*) glossing specific Quranic texts emerged, followed subsequently by dedicated chapters within comprehensive collections of hadith. Initially, traditions concerning the meanings of the verses and the circumstances of their revelation (*asbab al-nuzul*) were integrated into general hadith compendia; however, subsequent authors compiled them into distinct sections. Renowned scholars such as Shu'ba ibn al-Hajjaj (d. 776), Malik ibn Anas (d. 795), Waki' ibn al-Jarrah (d. 812), Sufyan ibn Uyaynah (d. 814), Rawh ibn Ubadah al-Qaysi (d. 820), Yazid ibn Harun as-Sulami (d. 821), and Abd ur-Razzaq as-San'ani (d. 827) were actively engaged in compiling narrations pertaining to this subject. Furthermore, the commentary on verses directly related to the life of the Prophet (s.a.w.) is expounded within his biographies (the *sirah* genre).

Keywords: Quran, Hadith, Fiqh, verse, as-Sulami, Tafsir, Prophet, Sirah, al-Qaysi.

Аннотация. Классический период толкования Корана (*тафсира*) приходится на вторую половину VIII века. В эту эпоху появились первые сборники хадисов, комментирующие отдельные коранические тексты, а впоследствии — специальные разделы в общих сводах хадисов. Первоначально

хадисы о значениях аятов и причинах их ниспослания (*асбаб ан-нузуль*) включались в общие сборники хадисов, однако позже отдельные авторы выделили их в самостоятельные главы. Сбором преданий по данной теме занимались такие известные ученые, как Шу'ба ибн аль-Хаджадж (ум. 776), Малик ибн Анас (ум. 795), Ваки' ибн аль-Джаррах (ум. 812), Суфьян ибн Уяйна (ум. 814), Раух ибн Убада аль-Кайси (ум. 820), Язид ибн Харун ас-Сулами (ум. 821) и Абд ар-Раззак ас-Сан'ани (ум. 827). Толкование же аятов, связанных с жизнью Пророка (с.а.в.), изложено в его жизнеописаниях (биографический жанр *сира*).

Ключевые слова: Коран, хадис, фикх, аят, ас-Сулами, тафсир, пророк, сира, аль-Кайси.

Kirish. Qur'on nozil bo'lgan dastlabki davrdan boshlab uni tafsir qilish boshlangan. Dastlabki leksikografik va grammatik asarlar ham Qur'onni to'g'ri sharhlash zarurati tufayli vujudga kelgan. Avvalboshda yaxlit bo'lgan ushbu fanlar majmuasi ichidan vaqt o'tishi bilan Qur'on tafsiriga bag'ishlangan maxsus asarlar ajralib chiqa boshladi. Qur'on tafsiri ilmi mustaqil islomiy fan tarmog'i sifatida faqat X asrga kelibgina shakllandi. Bu davrda taniqli ilohiyot olimi at-Tabariy va uning safdoshlari bo'lgan mufasssirlarning sa'y-harakatlari bilan dastlabki davr tafsir tajribalari sarhisob qilindi hamda klassik tafsirning fundamental tamoyillari ishlab chiqildi[1].

Keyingi bosqichda mualliflari muayyan ilm sohalari bilan cheklangan ixtisoslashtirilgan sharhlar paydo bo'ldi. Masalan, az-Zajjoj, al-Vohidiy va Abu Hayyon al-G'arnatiy e'tiborlarini ko'proq oyatlarning morfologik va grammatik tahliliga qaratganlar. Abu Ishoq as-Sa'labiy va al-Xoziniylar tarixiy jihatlariga alohida ahamiyat berishgan. Al-Jassos va al-Qurtubiy esa oyatlardan diniy-huquqiy hukmlarni chiqarish va bu boradagi olimlarning qarashlarini tizimlashtirish bilan shug'ullanganlar. Ratsionalistik (aqliy) yondashuv tarafdori bo'lgan Faxruddin ar-Roziy esa o'z tafsirida faylasuflar va mutafakkirlarning fikrlariga tez-tez murojaat qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Klassik islom ekzegetikasi (tafsirshunosligi) davri XIV asr oxiri – XV asr o'rtalarigacha davom etdi. Musulmon mufasssirlarining ko'p asrlik izlanishlari natijalari dastlab az-Zarkashiy, keyinchalik esa as-Suyutiy tomonidan umumiyashtirildi va tizimlashtirildi. Keyingi to'rt asr davomida musulmon diniy-falsafiy tafakkuri chuqur turg'unlik (krizis) davrini boshdan kechirdi, natijada Qur'on ilmlari deyarli rivojlanmadi[2].

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlab Qur'on oyatlarini zamonaviy fanlar – tibbiyot, fizika, geologiya, geografiya va boshqa fan yutuqlari prizmasi orqali sharhlash tendensiyasi (ilmiy tafsir) yuzaga keldi. Bu yo'nalishda zamonaviy

olimlardan shayx Abd al-Majid az-Zindaniy va professor Zagʻlul an-Najjorlarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Muhammad Abdu (1849–1905) va Abu al-Aʼlo Mavdudiy (1903–1979) tafsirlarida esa Qurʼon matnlari zamonaviy jamiyatlarning ijtimoiy va siyosiy tuzilishi uchun dolzarb boʻlgan prinsiplar manbasi sifatida tadqiq etilgan.

Zamonaviy Qurʼon tafsirlari nafaqat teologik (ilohiyot), balki ijtimoiy-siyosiy va ilmiy jihatlarini ham qamrab oladi, shuningdek, ular yuksak adabiy mahorat va keng qamrovli muammolar doirasi bilan ajralib turadi. Ayrim tafsirlar Qurʼon taʼlimotining mohiyatidan chuqur xabardor boʻlmagan keng kitobxonlar ommasiga moʻljallangan. Bunday asarlarga boʻlgan ehtiyoj islom dinining gʻayridin xalqlar orasida shiddat bilan tarqalishi, shuningdek, tizimli diniy taʼlim olmagan musulmonlarning muqaddas matnni toʻgʻri tushunishga boʻlgan talabi bilan izohlanadi. Abd ur-Rahmon as-Saʼdiy va Muhammad al-Ashqor kabi mualliflarning tafsirlarini aynan shular jumlasiga kiritish mumkin[3].

Bu davrda Abul-Faraj ibn al-Javziyning (vof. 1202) *“Funun al-afnan fi ajaʼib ulum al-Qurʼon”* (Qurʼon ilmlarining ajoyibotlari haqidagi turli sanʼatlar) hamda Abu Shoma al-Maqdisiyning (vof. 1267) *“al-Murshid al-vajiz fi-ma yataallaqu bi-l-Qurʼon al-aziz”* (Aziz Qurʼonga taalluqli masalalarning qisqacha qoʻllanmasi) kabi asarlari yozildi.

Jaloluddin as-Suyutiyning (vof. 1505) qisman rus tiliga tarjima qilingan *“al-Itqon fi ulum al-Qurʼon”* (Qurʼon ilmlarining mukammalligi) risolasi esa klassik islom qurʼonshunosligining eng choʻqqisi (shohasari) hisoblanadi[4].

Islom dunyosida Qurʼon ilmlariga boʻlgan qiziqish XX asr boshlarida, asosan klassik islom merosini qayta koʻrib chiqishga uringan musulmon islohotchilarining ijtimoiy-siyosiy faoliyati tufayli yangi kuch bilan uygʻondi. Mazkur diniy-ilmiy yoʻnalishning ikkinchi yuksalishi oʻtgan asrning oʻrtalariga toʻgʻri keladi – bu davrda taʼlim dasturlarini takomillashtirish zarurati anglab yetildi. Natijada Muhammad Abdul-Azim az-Zarqoniyning (vof. 1948) *“Manahil al-irfan fi ulum al-Qurʼon”* (Qurʼon ilmlari maʼrifatining chashmalari), Muhammad ibn Abdulloh Darrozning (vof. 1958) *“an-Naba al-azim”* (Buyuk xabar) hamda Subhiy as-Solihning *“Mabahis fi ulum al-Qurʼon”* (Qurʼon ilmlari boʻyicha tadqiqotlar) kabi fundamental asarlari dunyo yuzini koʻrdi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Taxminan oʻsha davrda Turkiya respublikasida ham qurʼonshunoslik jadal surʼatlar bilan rivojlana boshladi. Zamonaviy turk qurʼonshunoslik maktabi oʻzining tizimli yondashuvi hamda anʼanaviy islomiy metodologiya bilan gʻarbning tanqidiy-akademik yondashuvi yutuqlarini integratsiya qilganligi (birlashtirganligi) bilan ajralib turadi. Ushbu sohadagi fundamental tadqiqotlar qatoriga Umar Nasuhi Bilmennning *“Büyük Tefsir Tarihi”* (Katta tafsir tarixi, Anqara, 1960), Ismoil Jerrahoʻgʻlining *“Tefsir usûlü”*

(Tafsir uslubi, Anqara, 1991) va Muhsin Demirchining “*Tefsir usûlû*” (Tafsir uslubi, Istanbul, 2003) kabi asarlarini kiritish lozim[5].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shariat ilmida “tafsir” (“oydinlashtirish”, “ochib berish”) termini oyatlarning ma’nosini to’g’ri tushunish, bayon qilish va ulardan to’g’ri xulosalar chiqarishga imkon beruvchi barcha usullardan foydalangan holda Qur’onni sharhlash ma’nosini anglatadi. Alloh taolo O’z bandalariga ular tushunadigan tilda xitob qilgan. Shu sababli har bir payg’ambar o’z qavmining tilida gapirgan va muqaddas bitiklar ham aynan o’sha tilda nozil qilingan.

Qur’onni sharhlashga bo’lgan ehtiyoj sabablarini tushuntirarkan, az-Zarkashiy shunday yozadi: har bir insoniy asar muallifi o’z kitobini sharhlarsiz ham tushunarli bo’lishiga harakat qiladi, biroq sharhga (sharhlashga) bo’lgan ehtiyoj uchta omil tufayli yuzaga keladi:

Birinchidan, muallif shunday yuksak intellektual salohiyat va tafakkur kuchiga ega bo’lishi mumkinki, u eng nozik ma’nolarni lo’nda va qisqa so’zlarga joylashtiradi. Natijada uning asl muddaosini anglash qiyinchilik tug’diradi va sharhlovchining maqsadi ana shu yashirin ma’nolarni yuzaga chiqarishdan iborat bo’ladi.

Ikkinchidan, muallif ko’rilayotgan masaladan kelib chiqadigan ayrim natijalar yoki muqaddimalarni (asoslarni) ular juda aniq va ravshan deb hisoblagani yoxud boshqa fan sohasiga tegishli bo’lgani sababli tushirib qoldirishi mumkin. Bunday holatda mufassir nima tushirib qoldirilgani va u qaysi sohaga tegishli ekanini tushuntirib berishi lozim.

Uchinchidan, so’zlar ko’chma ma’noda qo’llanganligi yoki omonim bo’lganligi sababli bir nechta ma’noga ega bo’lishi mumkin. Mufassir esa muallifning asl maqsadini oydinlashtirishi va aytilgan so’zlarning kontekstga eng mos ma’nosini aniqlashi shart.

Xulosa. Islom dunyosida turli oqim va firqalarning tarqalishi natijasida, mualliflari o’z g’oya va qarashlarini himoya qilishga uringan tafsirlar ham vujudga keldi. Ayrim tasavvufiy va shi’iy tafsirlar oyatlarning faqat xos kishilargagina ayon bo’ladigan botiniy (yashirin) ma’nolariga tayangan. Tabiiyki, Qur’on matnini bunday subyektiv talqin qilish urinishlari musulmonlar ko’pchiligi (jumhur) tomonidan rad etilgan va faqatgina ushbu oqim namoyandalari uchun qiymatga ega bo’lgan.

Manbalar va Izohlar:

- [1] Э. Кулиев. История мусульманской экзегетики // Исламоведение: Пособие для преподавателя. 2-е изд., испр. Москва: МИУ, 2008. – С. 256-258.; Э. Кулиев. Становление и развитие науки о тафсире // Корановедение: Учебное пособие. Москва: Изд-во МИУ, 2010. – С. 273-276.
- [2] R. Wielandt. Exegesis of the Qur’ān: Early Modern and Contemporary // Encyclopaedia of the Qur’ān. — Leiden : E. J. Brill, 2002. – Vol. II (E-I). – P. 124-142.

- [3] C. Gilliot. Exegesis of the Qur'ān: Classical and Medieval // Encyclopaedia of the Qur' ān. – Leiden: E. J. Brill, 2002. – Vol. II (E-I). – P. 99-124.
- [4] Э. Кулиев, М. Муртазин. Корановедение, Баку: Изд-во «Шерг-Герб», 2011. – С. 7-8.
- [5] Э. Кулиев, М. Муртазин. Корановедение, Баку: Изд-во «Шерг-Герб», 2011. – С. 7-8.; Густерин П. Первый переводчик и первое издание Корана на русском языке // Исламоведение. 2011. № 1.; Густерин П. В. К вопросу о первенстве в переводе Корана на русский язык // Вопросы истории. 2013. № 12.